AHOLI KAMBAG'ALLIGINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi
"Andijon davlat texnika instituti" "Iqtisodiyot"kafedrasi tayanch doktoranti
Andijon viloyati, Andijon shahri, Mashhur ko'chasi 8-uy
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629698

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aholi kambag'alligini tadqiq etishning nazariy asoslari keng qamrovli tahlil qilinadi. Aholi kambag'alligi muammosi zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Maqolada aholi daromadlaridagi notekislik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlari, shuningdek, kambag'allikning ijtimoiy ta'sirlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bu masalani hal etishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *aholi kambag'alligi, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy muammolar, daromad notekisligi, ta'lim va sog'liqni saqlash, kambag'allik ta'siri, strategiyalar*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations for studying population poverty. The issue of poverty is deeply intertwined with the social, economic, and political processes of contemporary society. The article examines income inequality among populations, accessibility to education and healthcare services, as well as the social impacts of poverty. The findings of the research will aid in the development of effective strategies to address this critical issue.*

Key words: *population poverty, economic analysis, social issues, income inequality, education and healthcare, impacts of poverty, strategies*

Аннотация. *В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических основ исследования бедности населения. Проблема бедности тесно связана с социальными, экономическими и политическими процессами современного общества. В статье рассматриваются неравенство доходов среди населения, доступность образования и медицинских услуг, а также социальные последствия бедности. Результаты исследования помогут в разработке эффективных стратегий для решения этой актуальной проблемы.*

Ключевые слова: *бедность населения, экономический анализ, социальные проблемы, неравенство доходов, образование и здравоохранение, влияние бедности, стратегии*

Kirish

Milliy iqtisodiy tizimni rivojlantirishda, uning barqaror darajasini ta'minlash uchun faol iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish iqtisodiyotning asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiyotining barqaror rivojlanlantiruvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning real o'sishi, inflyatsiya, valyuta kursi, ishsizlik darajasi, to'lov balansi kabilarning ijobiy darajada bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Yuqorida qayd etilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblangan ishsizlik darajasi kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillardan deb sanalmoqda. Kambag'allik - oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana kabi asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli pul yo'qligi. Biroq, kambag'allik pulning yetishmasligidan ko'ra ko'proq narsani anglatadi. Jahon banki kambag'allikni shunday ta'riflaydi:

“Kambag’allik– ochlik. Kambag’allik - bu boshpana yetishmasligi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030-yillar uchun mo’ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturida 17 ta global maqsadning birinchisi etib “Mamlakatlarda aholining kam ta‘minlanganlik darajasini pasaytirish” maqsadini belgiladi. Shuningdek mazkur hujjatda 8-maqsad sifatida “Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta‘minlash asosida barqaror va keng qamrovli iqtisodiy o’sishga ko’maklashish maqsadi belgilandi. Qashshoqlikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va hamma odamlarning tinchlik va farovonlikdan bahramand bo’lishini ta‘minlash majburiyati bilan 2030 kun tartibi yana Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan va‘daga ishora qildi. Shunga qaramay, hozirgi voqelik shuni ko’rsatadiki, biz hammani boqish uchun yetarli mahsulot ishlab chiqaradigan dunyoda 811 million odam yetarli oziq-ovqatga ega emas va 44 million kishi ocharchilikka duchor bo’lish xavfi ostida (1). 2 milliard odamgina bu xavflardan hanuzgacha xavfsiz yashaydi. ichimlik suvi va xavfsiz boshqariladigan sanitariya sharoitlarisiz 3,6 mlrd. (manba: JSST va UNICEF). 1,3 milliard odam hali ham ko’p qirrali qashshoqlikda yashaydi (manba: BMTTD), ularning deyarli yarmi bolalar va yoshlardir. Mutaxassislar fikricha, kambag’allik tushunchasiga yagona ta‘rif mavjud emas. Ba‘zilar insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirish imkoniyati yo’qligini kambag’allik deb tushunsa, boshqalar tanlov erkinligining yetarlicha emasligini yoki kishining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta‘lim va sog’liqni-saqlash sohasidagi to’siqlarning doimiy doirasini tushunishadi.

Adabiyotlar tahlili

Kambag’allikka turli davlatlarda har xil izohlar, turlicha fikrlar bildiriladi. Umuman, jahon tajribasida biror shaxs yoki ijtimoiy guruhning hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan minimal ehtiyojlar, mehnatga layoqatlilik hamda avlodini davom ettirishga imkoniyati yetarli bo’lmagan kabi iqtisodiy holatlarni tavsiflovchi tushunchaga kambag’allik deyiladi. Buni aniqlashda bir nechta chegara bo’lib, aholining munosib turmush kechirishi uchun ma‘lum bir me’yor belgilanadi. Agar kishining daromad (yoki xarajat)lari belgilangan me’yordan past bo’lsa, u kambag’al hisoblanadi. Kambag’allik chegarasi kunlik eng kam miqdordagi oziq-ovqat va zaruriy mahsulotlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar yoki olingan daromadlar hamda oilaning ma‘lum bir guruhdagi tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash orqali belgilanadi. Masalan, Davlat statistika qo’mitasining kambag’allikni o’lchash uslubiyotiga binoan, O’zbekistonda kunlik 2100 kkal.dan kam iste’mol (xarajat) qilgan kishilar kambag’al deyiladi.

“2019 yil yakunida O’zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 1723 AQSh dollarini tashkil etishi, Jahon banki klassifikatsiyasi bo’yicha respublikani o’rtadan past daromadli mamlakatlar guruhiga kirishiga asos bo’ldi”, deya yozadi Nurbek Yo’ldoshev. Moliya vazirligining 2020 yil aprel-may oylari bo’yicha e’lon qilingan hisobotida ish haqi olib ishlayotgan va jismoniy shaxslar daromad solig’ini to’layotgan fuqarolarning qariyb 1 million 772 ming nafari (42,6 foiz) 1 million so’mgacha, 1 million 66 ming nafari 1 million so’mdan 2 million so’mgacha oylik olishi keltirilgan. Iqtisodiy taraqqiyot, texnologik vositalar va moliyaviy resurslar misli ko’rilmagan darajada rivojlangan dunyoda millionlab odamlarning o’ta qashshoqlikda yashayotgani ma‘naviy nuqsondir. Qashshoqlik nafaqat iqtisodiy muammo, balki ko’p qirrali hodisa bo’lib, u ham daromadning, ham munosib yashash uchun asosiy imkoniyatlarning yetishmasligini o’z ichiga oladi. Qashshoqlikda yashovchi shaxslar o’z huquqlarini amalga oshirishga to’sqinlik qiluvchi va qashshoqlikni davom ettiradigan ko’plab o’zaro bog’liq va o’zaro

mustahkamlovchi mahrumliklarni boshdan kechiradilar, jumladan: -xavfli ish sharoitlari; -xavfli uy-joy; -to'yimli oziq-ovqat yetishmasligi; -adolatdan foydalanishning tengsizligi; -siyosiy kuchning y etishmasligi; -tibbiy xizmatdan foydalanish cheklanganligi; Imkoniyatlarning tengsizligi, shu jumladan asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va gender tengsizligi saqlanib qolmoqda, shu bilan birga daromadlar tengsizligi keskin oshib bormoqda va har yili boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovut yanada kengayib bormoqda. O'tgan yili millionlab odamlar ishchilar huquqlari va ish sifatining buzilishi bilan boshqa kunga yetish uchun kurashayotgan bir paytda, korporativ hokimiyat va milliarderlar sinfining boyligi misli ko'rilmagan o'sishni qayd etdi(3). Qashshoqlik va tengsizlik muqarrar tushuncha deb hisoblanmaydi. Ular shunchaki jamiyatimizdagi katta ahamiyatga ega bo'lmagan va kamroq darajada e'tibor qaratilgan qaror va fiklarning istalmagan natijasiga aylangan jamiyatimiz a'zolaridir. Qashshoqlikning jim va doimiy zo'ravonligi hisoblanmish- ijtimoiy ajratish, tizimli kamsitish va huquqlardan o'z-o'zini qisman mahrum qilish, yetarlicha ta'limga ega bo'lmaslik kabi illatlar - o'ta qashshoqlik tuzog'iga tushib qolgan odamlarni undan qutulishini qiyinlashtirmoqda. COVID-19 pandemiyasi ushbu dinamik, ijtimoiy himoya tizimidagi kamchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarni, shuningdek, tizimli tengsizliklarni va qashshoqlikni chuqurlashtiradigan va davom ettiruvchi kamsitishning turli shakllarini kuchayishiga turtki bo'ldi. Bunga qo'shimcha ravishda, favqulodda iqlim sharoiti, irrigatsion muammolar kabilar qashshoqlikda yashovchi odamlarga nisbatan yangi qiyinchiliklarni tashkil etadi, atrof-muhitning degradatsiyasining tez-tez sodir bo'lishi ortiqcha yuk bo'lib, ularning asosiy yashash vositalaridan hisoblangan qishloq xo'jaligini keskinlashuviga olib kelmoqda. "Atrof-muhit, ekotizim va biologik xilma-xillikning buzilishi qashshoqlikda yashovchi oilalarni boshqalardan ko'ra ko'proq tashvishlantirmoqda." [3]. Bu yil Butunjahon o'ta qashshoqlikka qarshi kurash kunining 35 yilligi va Xalqaro qashshoqlikka barham berish kunining 30 yilligi nishonlanadi. Ushbu kun qashshoqlikdan aziyat chekayotgan millionlab odamlarni va ularning kundalik jasoratini sharaflaydi va qashshoqlikni yo'q qilish va kamsitishning barcha shakllariga qarshi kurashish uchun muhim global birdamlik va umumiy mas'uliyatni e'tirof etadi. 2023-yilda SDGlarning o'rta muddatli ko'rib chiqilishi hukumatlarga sayyoramizda va eng kambag'allarda sodir bo'layotgan zo'ravonlikni tugatish, qashshoqlik va zulmni davom ettiruvchi hamda taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi tizimli tengsizliklar va kamsitishlarni tuzatish imkoniyatini taqdim etadi[4].

Kambag'allik resurslarning yetishmasligi va yashashga qodir emasligi bilan bog'liq tushunchadir. Kambag'allik keng ko'lamli omillarni o'z ichiga oladi, shu jumladan yetarli darajada oziq-ovqat va uy-joy iste'moli, yomon sog'liq va muammolar, sog'liqni saqlash, mehnat bozorida xizmatlarini taklif qila olmaslik va siyosiy qobiliyatsizlik[5].

Muhokama va natijalar

Hozirda aholining yordamga muhtoj qatlamiga transfert to'lovlarni ya'ni ijtimoiy nafaqa va pensiyalarni ko'paytirish orqali ularga amaliy yordam ko'rsatish orqali qashshoqlikni kamaytirishga erishish mumkin deb hisoblanmoqda. Bu esa o'z navbatida bir tomonlama yechim bo'lib, ushbu muammoni to'liq hal qila olmaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlik orqali kambag'allikni kamaytirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan video selektor yig'ilishi o'tkazildi. "Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12-15 % yoki

45 million kishi kambag'al. Demak, ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmaydi. Yoki oilada mashina ham, uy hayvoni ham bo'lishi mumkin emas, lekin agar odam og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Bunday oilani o'zini-o'zi ta'minlaydigan oila deb atash mumkinmi? "Prezident sifatida meni xalqimiz hayotida nimalar bo'lyapti, oziq-ovqat, davolanish, ta'limtarbiya, farzandlari uchun kiyim-kechak kabi savollar har kuni qiynayapti. Yig'ilishda davlat rahbari yana qo'shimcha qildi: "Kambag'allikning qisqarishi oylik yoki pensiya nafaqalari, ommaviy kreditlar ko'payishini anglatmaydi. Buning uchun, birinchi navbatda, kasb-hunarga o'rgatish, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, infratuzilma, bolalarga ta'lim-tarbiya berish, sifatli davolash, manzilli imtiyozlar berishni yo'lga qo'yish zarur, - dedi Prezidentimiz[6]. Kambag'allikni bartaraf etish muammosi barcha olib borilayotgan islohotlarga samarali qo'shilish yo'qligi sababli, ijtimoiy yordam tizimi hali ham yetuk emasligi tufayli hal qilina olmayapti. Qishloqning yordamini misol qilib olsak, qishloqda kadrlar sifati notekis, kambag'allarga yordam berish vositalari esa yagona. Kambag'allarga yordam berish faqat kambag'allarning moddiy darajasida bo'lib, ba'zi bo'limlar fuqarolik yordamiga ko'ra ishni bajaradi. Bu yordam ko'proq kambag'al qishloq va kambag'allar shaklida bo'ladi. Ba'zi kadrlar boshlang'ich tashkilot ishini yaxshi bilmaydi, o'z sifati past, qobiliyati yetarli emas. Ular qishloq kadrlariga qashshoqlikni bartaraf etish bo'yicha ish g'oyalarini oydinlashtirish va qashshoqlikni bartaraf etish qoidalarini shakllantirishda yordam berishda yetarlicha tashabbus ko'rsata olmayapti.

Qishloq hududlari aholisining daromadini oshirish bo'yicha bir qator chora tadbirlar jahonning barcha mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham aholi daromadini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda Yuqoridagi kamchiliklarni kamaytirish maqsadida mamlakat o'z oldiga 2026 yilga qadar kambag'allik darajasini 2 barobarga kamaytirish va mamlakat eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish hamda xususiy sektorning eksportdagi hajmini 60 foizga yetkazishni maqsad qilib qo'ydi[7].

O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasini kamaytish maqsadida juda katta salmog'li ishlar qilindi. Xususan "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi ro'yxatlar shakillantirilib, qishloq hududlari aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga subsidiyalar va kam foizli kreditlar berilmoqda. Bu kabi sa'y-harakatlar zamirida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirib qishloq hududlari aholisini xususiy hamda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ko'zda tutilgan.

Xulosa

O'zbekistonning qishloq hududlari aholisi daromadini oshirish orqali, kambag„allik darajasini qisqartirishga oid amaliy takliflar ishlab chiqish hisoblanadi. Shu maqsadda sohaga oid bo'lgan boshqa tadqiqotchilarning jamoatchilikdan olgan so„rovnomasidan ham foydalanilgan. Natijaga ko'ra qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda chekka-chekka hududlarga ya'ni urbanizatsiyalashmagan hududlarga infratuzilmalarni yetkazib borish, u yerda ham ishlab chiqarish obyektlarini ya'ni zavod va korxonalarni barpo etish lozimligi o'z aksini topdi. Bunda qishloq hududlarining aholi daromadi tarkibida mehnat faoliyatidan olinadigan daromadning ulushini oshirish zarurligi ko'rsatildi. Shuningdek qishloq hududlari aholisiga o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun subsidiyalar va foizi past bo'lgan kreditlarni berishni joriy qilish hamda ularga o'z biznesini va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun mutaxasislar tomonidan yetarlicha ko'rsatmalar berilishi zarurligini

o’rganildi. “Kambag’al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o’qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida” gi 11.08.2020 yil PQ-4804sonli Qarori aynan mana shu masalada qabul qilindi. Qarordan asosiy maqsad — kambag’al va ishsizlarni kasbhunarga va tadbirkorlikka o’qitishning yangi tizimini joriy qilish, ularni kasb-hunarga o’qitishda xususiy sektor bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish, kasb-hunarga va tadbirkorlikka o’qitish jarayonlarini tashkil etish, ehtiyojmand aholi va nogironlar ish bilan bandligini ta‘minlashga oid qo’shimcha choralarni amalga oshirish hisoblanadi. Mazkur qarorda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda ishsizlikni oldini olish, kambag’allikni qisqartirishda ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.https://www.worldbank.org/en/topic/poverty
2. https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/6754Technical
3. 3.Kristian, ijtimoiy va ekologik adolat aktivisti, DRC
4. 4.United Nations.Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Development
5. Shahbaz, M., Shamim, S. A., & Aamir, N. (2010). Macroeconomic environment and financial sector's performance: econometric evidence from three traditional approaches. The IUP Journal of Financial Economics, 1, 103-123
6. 6.Xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerak - Prezident : https://kun.uz/news.
7. Sh. Mirziyoyev:“Yangi O’zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”